

XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH ORGANLARI FAOLIYATI

Eshonqulov Xamroqul Mamatqulovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalari butun ta'lim tizimining eng ahamiyatli bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu bo'g'inda ta'lim sifatini nazorat qilish, samaradorlik o'lchovlarini tahlil etib borish muhim vazifadir. Ushbu maqolada xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish organlarining faoliyati tahlil etiladi. E'tiborga molik bo'lgan eng ilg'or texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, yangicha innovatsion qarashlarning xorij davlatlaridagi ko'rinishlari maqolada ko'rib chiqiladi. Maqolaning dolzarbligi xorijiy nazorat organlari hamda texnologiyalarni o'zlashtirish zaruriyatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, organ, pedagogika, universitet, institut, nazorat, metod, texnologiya.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ОРГАНОВ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Эшонкулов Хамрокул Маматкулович

Джизакский государственный педагогический университет

Аннотация: Высшие учебные заведения являются одним из важнейших звеньев всей системы образования. В связи с этим важно контролировать качество образования, анализировать эффективность принимаемых мер. В данной статье анализируется деятельность органов контроля качества в зарубежных высших учебных заведениях. В статье рассматриваются самые передовые технологии, педагогические технологии, проявления новых инновационных идей в зарубежных странах. Актуальность статьи отражена в необходимости зарубежных регуляторов и внедрения технологий.

Ключевые слова: высшее образование, корпус, педагогика, вуз, институт, контроль, метод, технология.

ACTIVITIES OF THE QUALITY CONTROL BODIES OF EDUCATION IN FOREIGN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Eshonkulov Khamrokul Mamatkulovich
Jizzakh State Pedagogical University

***Annotation:** Higher education institutions are one of the most important links in the entire education system. In this regard, it is important to monitor the quality of education, to analyze the effectiveness of measures. This article analyzes the activities of quality control bodies in foreign higher education institutions. The article discusses the most advanced technologies, pedagogical technologies, the manifestations of new innovative ideas in foreign countries. The relevance of the article is reflected in the need for foreign regulators and the adoption of technology.*

***Keywords:** higher education, body, pedagogy, university, institute, control, method, technology.*

Kirish (introduction): Oliy ta'limda ta'lim sifati bo'lajak mutaxassislarining kasb malakasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Bugungi bilimli talaba ertangi yetuk kadr demakdir. Bu borada xorijiy davlatlar ilg'or texnologiyalarni joriy etib kelishmoqda. Jumladan oliy ta'lim sifatini nazorat etish organlari faoliyati bugungi kunda ta'limning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Adabiyotlar sharhi (Literature review): Tizim nazariyasi to'g'risidagi mumtoz asarlar sirasiga avstriyalik biolog Lyudvig Fon Bertalanfi (1901-1972) va uning izdoshlari asarlarini kiritish mumkin. Ushbu sohaning eng ko'zga ko'ringan vakillari sifatida A.J.Puankare, A.A.Bogdanov, A.N.Kolmogorov, V.Arnold, I.R.Prigojin, R.L.Akofflarni kiritish mumkin. Ushbu mavzu yuzasidan yuqoridagi adabiyotlardan tashqari bir qator elektron manba va ko'rsatkichlar saytlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil (methods): Yaponida hozirgi kunda 1200 dan ziyod universitet va kollejlarda bo'lib, unda 3.22 mln. talaba tahsil oladi. Yaponiyada barcha milliy universitetlar 2004 yildan boshlab korporatsiya sifatida qayta tashkil qilindi. milliy universitetlarning bunday birlashuvi ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning yanada jonlanishiga olib keldi. Shuningdek, har bir milliy universitet moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'ldi. 2004 yildan boshlab jamoat universitetlari mahalliy jamoat yuridik shaxslarga korporatsiyani o'z xohishiga ko'ra tashkil etish va boshqarish imkonini berdi.

Yaponiya ta'lim tizimidagi qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan xalqaro xorij universitetlariga talab kuchli. Shu bois Maorif, Sport, Fan va texnika vazirliklari

universitetlarning ta'lim faoliyatini yaxshilash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirdi¹:

- Sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi orqali Oliy ta'limsifatini oshirish;
- Bakalavriyat va magistratura sifatini yanada yaxshilash;
- Xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish;

Yaponiya Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ma'lum muddat sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi barlashtirildi.

Yaponiyada universitetni moliyalashtirish asosan 2 turda amalga oshiriladi: asosiy chiqimlarni moliyalashtirish, ayrim o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotlari uchun raqobatbardosh fondlar va talabalarga moliyaviy yordam.

Milliy, jamoat va xususiy universitetlarni musobaqa asosida moliyalashtirish ham yaxshi yo'lga qo'yilgan².

Germaniya oliy o'quv yurtlari o'zining ko'p asrlik an'analari va buyuk ma'rifatparvarlari bilan faxrlanadi. Universitet ta'limining reformatori Vilgelm fon Humboldt joriy qilgan "ilm-fan va ta'lim birligi" tamoyili hanuz amalda bo'lib, bu o'z navbatida ilmiy izlanishlar bilan o'qituvchilar ham, talabalar ham shug'ullanishi lozimligini ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur ideal qarash birmuncha o'zgargan bo'lib, talabalar foydali kasb va amaliy ko'nikmalaregallash tarafdoridirlar. Shu bois ham Germaniyada "oliy maxsus maktablar" (**Fachhochschulen**) juda ommalashgan, unda o'qish muddati kam, o'quv dasturi universitetlarga qaraganda amaliyotga yaqinroq³.

Germaniya OO'Y larida "akademik erkinlik" hukmron, ya'ni qat'iy o'quv reja yo'q, majburiy ma'ruzalar kam, talabalarning tanlov imkoniyati ko'p. Shu bois ham o'z yurtida qat'iy tartibga o'rgangan chet ellik talabalar o'quv yilining boshida birmuncha qiynaladilar. Bu haqda AQShning Viskonsin shtatidan kelgan Djon Vulf "Mustaqil ishlashga o'zingni tayyorla. Bu yerda professorlarni AQShdagiga nisbatan kamroq ko'rasan. Ustingdan nazorat ham yo'q. Men bu yerda bilimni o'qituvchi uchun emas, o'zim uchun egallash lozimligini o'rgandim"-deydi.⁶

Janubiy Koreyada oliy ma'lumotga ega bo'lish har bir koreys fuqarosining keyingi mavqei muvaffaqiyati uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham bu martabali ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga bo'lgan ehtiyoj ham katta. Janubiy Koreyada e'tibor ko'proq matematika, koreys tili va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat bilan bog'liq fanlarga qaratiladi.

¹ Джусубалиева Д.М. Сравнительная педагогика. Методический альманах.-Алматы, 2017.

² Higher Education in Japan. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. P.34,6,10,16,17,18

³ Studying in Germany. A Practical Guide for International Students. DAAD, 2014 P.6

Koreyada oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish qattiq nazorat ostida bo'lib, har bir da'vogarning ma'lum bir kollej yoki universitetga muvofiqligi talabaning ta'limni o'zlashtirish qaydlari va standartlashtirilgan milliy test natijalari orqali belgilanadi.

Kanadada bugungi kunda 90 ga yaqin oliy o'quv yurtlari bo'lib, ularning ko'pchiligi universitetlardir. Ularning asosiy qismi davlat muassasalaridir. Diniy yo'nalishdagi ayrim xususiy o'quv yurtlari ham mavjud. Bu ikkita davlat tiliga ega bo'lgan davlatda hukumat doimo o'z fuqarolarining ta'lim darajasini yuksaltirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Universitetlarning ayrimlarida ta'lim ingliz, ayrimlarida fransuz tilida, ayrimida esa (Ottava universitetida) ikki tilda mashg'ulotlar olib boriladi.

Kanada oliygohlari abituriyentlarga talabni o'zlari belgilashadi. Ayrim oliygohlar chet elliklarning diplomlarini hisobga olsa, ayrimlaritan olmaydi, bu yerda o'qish uchun tayyorlov kurslarida o'qishga to'g'ri keladi. Har qanday holda ham tildan -TOEFL (550 baldan) yoki IELTS (5,5 baldan) testini topshirishi shart. 18 yoshdan o'qish mumkin.

Belgiya oliy o'quv yurtlari tomonidan berilgan barcha diplomlar Yevropa Ittifoqi davlatlari, shuningdek Islandiya, Norvegiya, Tursiya va Malta mamlakatlarida e'tirof etiladi¹.

Birinchi bosqich Gradue diplom berilishi bilan yakunlanadi. Ikkinchi pog'ona tahsilidan keyin Licencie diplomi beriladi. Institut va universitetlarning ikkinchi pog'ona bitiruvchilari uchun yagona bo'lib, umumiy hisoblangan uchinchi pog'onadan keyin bitiruvchiga (Ingeneurdiplome) diplomli muhandis darajasi beriladi.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borish bo'yicha AQSh jahon mamlakatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatda ilmiy izlanishlar uchun ajratilgan mablag'ning 48 foizini davlat tomonidan, 50 foizini firma, konsern, sindikatlardan undiriladi, qolganlarini oliy o'quv yurtlarining manbalari tashkil qiladi.

Natijalar (results): Xorijiy ta'limda so'nggi yillarda nazorat qilish organlariga taalluqli bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

*TYUTOR*² - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarnikeng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER (*advisor*)-fransuzcha "avisen""o'ylamoq") tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

¹ Florian Geyer. The Educational System in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website <http://www.ceps.eu>)© CEPS, 2009

² Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Pedagogik texnologiyaga oid atamalarning izohli lug'ati.-T.:Fan va texnologiya.2018.-43 b.

FASILITATOR - (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis–yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR -qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Xulosa va munozara (discussion): Yuqorida ko‘rib chiqilgan bir qator davlatlarning oliy tizimini nazorat etish organlari faoliyatlari bugungi kunda yurtimizda tatbiq etilishi muhim vazifa hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilib kelinayotgan ushbu jarayonlarning mamlakatimizga har tomonlama mos keladigan qismlarini o‘zlashtirish hamda yo‘lga qo‘yish bugungi oliy ta’limning muhim funksiyasi desak adashmagan bo‘lamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Higher Education in Japan. Higher Education Bureau, Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. P.34,6,10,16,17,18
2. Studying in Germany. A Practical Guide for International Students. DAAD, 2014 P.6
3. Титов В.А.Педагогика зарубежных стран (сравнительная педагогика). А-Приор, 2010.
4. Florian Geyer. The Educational System in Belgium CEPS Special Report/September. ISBN 978-92-9079-921-4 Available for free downloading from the CEPS website <http://www.ceps.eu>)© CEPS, 2009
5. Джусубалиева Д.М. Сравнительная педагогика. Методический альманах.- Алматы, 2017.
6. Урастаева Г.Д. Сравнительная педагогика. -Алматы, 2006.
7. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case- study” uslubi: Nazariya, amaliyot va tajriba.-T.:Tafakkur qanoti, 2012.-131 b.
8. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Pedagogik texnologiyaga oid atamalarning izohli lug‘ati.-T.:Fan va texnologiya.2018.-43 b.
9. Ishmuhamedov R . Tarbiyada innovation texnologiyalar.-T.: Fan,2010

Internet resurslar

1. <http://www.mext.go.jp/>
2. books@bmbf.bund.de
3. <http://www.bmbf.de>
4. www.ziyonet.uz